

*IFTIXOR XONXO'JAYEV*

# UYG'OQ YURAK

*She'rlar*



*TOSHKENT*  
*«ADIB» NASHRIYOTI*  
*2012*

УДК: 821.512.133-1

ББК: 84 (5Ў)7

X74

**Mas'ul muharrir:**

*Iqbol Mirzo*

*Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
Yoshlar bilan ishlash bo'limi tomonidan nashrga  
tavsiya etilib, "Ijod" fondi tomonidan  
moliyalashtirilgan.*

*Kitob respublika ta'lim muassasalari kutubxonalariga  
bepul tarqatiladi.*

**Xonxo'jayev, Ifixor.**

X74 **Uyg'oq yurak:** she'rlar/I. Xonxo'jayev.

– T.: ADIB nashriyoti, 2012. – 80 b.

ISBN 978-9943-317-82-6

УДК: 821.512.133-1

ББК: 84 (5Ў)7

ISBN:978-9943-317-82-6

©«ADIB» nashriyoti, 2012

© I. Xonxo'jayev, 2012

## EZGU AN'ANA

*Muhtaram Yurtboshimizning «Adabiyotga e'tibor — ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» nomli risolasida «iste'dodlarni izlab topish va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishda chuqur o'ylangan usullar, ya'ni aniq mexanizm zarurligini bugun adabiyotimiz manfaatlari talab etmoqda», degan fikr asosiy maqsad-muddaolardan biri sifatida alohida ta'kidlangani bejiz emas.*

*Prezidentimiz "Adabiyot masalasi - ma'naviyat masalasidir" deb ijodkorlar oldida turgan ulkan va mas'uliyatli vazifaga urg'u berarkan, millat kelajagi uchun qalam ahli ham javobgar ekanligiga e'tibor qaratadi:*

*"...agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak".*

*Ana shu yuksak e'tibor samarasi o'laroq, bugungi kunda yosh iqtidor egalariga yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar har qanday ijodkorning havasini keltirishi tabiiy. Jumladan, «Do'rmon» ijod uyida ustoz-shogirdlik an'analarini davom ettirishga zamin yaratuvchi ijodiy uchrashuvlar, o'quv seminarlarini aytish mumkin. Ayniqsa, ezgu an'anaga aylanib ulgurgan «Birinchi kitobim» loyihasi doirasida chop etilayotgan mo'jaz asarlar adabiy hayotimizda ulkan hodisa sifatida e'tirof etilmoqda.*

*Qo'lingizdagi kitob ham minglab ijodkor yoshlarning ichidan saralab olingan, mashaqqatli va serzavq mehnatning hosilasi, umidli yosh ijodkorning dastlabki qadamidir.*

## OʻZBEK OʻGʻLI

*Beshikdamas, ikki dunyo orasida,  
Yelkasiga nomus nomli tigʻ iladi.  
Sohibqiron Amir Temur bolasi-da,  
Oʻzbek oʻgʻli sulton boʻlib tugʻiladi.*

*Jonidan ham afzal bilib el gʻururin,  
Ona yurtga baxsh aylabon yurak qoʻrin,  
Biri Shiroq, yana biri Jaloliddin,  
Yurtga koʻksi qalqon boʻlib tugʻiladi.*

*Olsa faqat Yaratgandan olar farmon,  
Chehrasidan iymon nuri yogʻiladi.  
Bu dunyosi boʻlsa agar ulugʻ karvon,  
Oʻzbek oʻgʻli sarbon boʻlib tugʻiladi.*

*Yuragida Mirzo Bobur shiddati bor,  
Vujudida Mir Alisher talʻati bor,  
Bobolardan meros — buyuk davlati bor,  
Unga asl posbon boʻlib tugʻiladi.*

*Har birlari arslonyurak, lochin qushlar,  
Nigohiga Zuxro yulduz yiqiladi.  
Beshiklarda yotar jajji Alpomishlar,  
Oʻzbek oʻgʻli doston boʻlib tugʻiladi.*

\* \* \*

*Sahar turib nurli yerga nihol ekdim,  
Unib o' ssin, daraxt bo'lsin, meva solsin.  
Niholimning kamoliga jonim tikdim,  
Hech bo'lmasa mendan bitta nihol qolsin!*

*Bugun bahor, ertaga kuz hayot shu-da,  
Yuragimda azoblarim to'da-to'da,  
Umrim o'tdi ko'p afsusli, ko'p behuda,  
Hech bo'lmasa mendan bitta nihol qolsin!*

*Bir kun kelib kimlargadir soya bo'lar,  
Mayli, bir kun qarg'alarga uya bo'lar,  
Tik o'sarmi yoki qaddi tuya bo'lar,  
Hech bo'lmasa mendan bitta nihol qolsin!*

*Bu bemazmun hayotimning mazmuni u,  
Dilda barcha amlarim yakuni u,  
Nihol emas, jon-jonimning ustuni u,  
Hech bo'lmasa mendan bitta nihol qolsin!*

*Dushmanlarim, bir ojizga aylang shafqat,  
Meni deya yasalgan dor uchun rahmat,  
Meni osing, niholimga tegmang faqat,  
Hech bo'lmasa mendan bitta nihol qolsin!*

*Bir kun kelib dunyoni tark etar boʻlsam,  
Sarson ruhim shoxlarida orom olsin.  
Mayli, hatto yigʻolmasa hamki oʻlsam,  
Hech boʻlmasa mendan bitta nihol qolsin!*

## **ADASHGAN XAT**

*"Yuragimni qamragan sogʻinch,  
Har nafasda eslayman sizni.  
Hatto tunlar uxlolmayman tinch,  
Tushlarimdan izlayman sizni.*

*Jodu kabi tortarkan mehr,  
Xat yozarman bedor tunlarim.  
Sogʻinganda ortarkan mehr,  
Shukur, yaqin diydor kunlari..."*

*Har haftaning yakshanbasida  
Takrorlanar oddiy odat bu.  
Bir yigitdan rafiqasiga  
Joʻnatilgan oʻninchi xat bu.*

*Bu gal biroz bosdimi gʻaflat,  
Oʻrtada xat tashuvchi qushni.  
Xotiniga yozilgan bu xat  
Onasining qoʻliga tushdi.*

*Xotin o'zi bilan ovora,  
Na er, na xat bilan ishi yo'q.  
Ammo bugun bu keng dunyoda,  
Onasidan baxtli kishi yo'q.*

*Bizga aql o'rgatma de mang,  
Bir shoirni telba atashib.  
Xat bitganda onangizga ham  
Yozib turing, mayli, adashib.*





## USMON NOSIRGA

*Koʻngli oqqa belanib Usmon  
Sochiga oq tushmasdan ketdi.*

**Valisher Vohidov**

*Ona, men qaytaman, xavotir olma,  
Ozroq savol-javob qilishar ekan.  
Kerakmas, xaltamga yegulik solma,  
Tekshirib qolishsa kulishar ekan.*

*Ona, men qaytaman, xavotir olma,  
Ozgina oʻtirsam javob berarkan.  
Siqilma, bu yerning azobi holva,  
Faqat sogʻinch yomon azob berarkan.*

*Ona, men qaytaman, xavotir olma,  
Kim ham yov boʻladi menday kibrga.  
Ammo koʻrib kelay endi bir yoʻla,  
Yoʻllanma berishdi bugun Sibirga.*

*Ona, men qaytaman, xavotir olma,  
Yigʻlama, yuragim toʻxtab qoladi.  
Azroil ololmay yongan jonimni  
Sening koʻzlaringning yoshi oladi.*

*Ona, men qaytaman, xavotir olma,  
Axir taqdir shuni yuzlagan ekan.  
Ajab to'rtta fasli muz bu o'lkada  
Insonlar qalbi ham muzlagan ekan.*

*Ona, men qaytaman, xavotir olma,  
Sog'indim yuragi otash elimni.  
Ularga o'qib ber muzlar bag'rida  
Otash qalbim bilan yozgan she'rimni.*

*Ona, men qaytaman, xavotir olma,  
Bevafo itlarning hurmog'i uchun.  
Roziydim ming bora jonim berishga  
Yurtimning bir siqim tuprog'i uchun.*

*Ona, men qaytaman, xavotir olma,  
Ajaj so'nggi yo'lga jonni hozirlar.  
Ammo sen yig'lama, Onajon hali,  
Tug'iladi qancha Usmon Nosirlar.*

*Ona, men qaytaman, xavotir olma!*

## O'RTAMIZDA

*O'rtamizda ulkan jarlik,  
Qadam bossam yiqilgum.  
Seni qo'msab kechalari  
Azoblangum, siqilgum.*

*Endi senga yetganimda  
Yer ikkiga bo'lindi.  
Qolib ketding u tomonda,  
Qolib ketdim men bunda.*

*O'rtamizda ulkan jarlik,  
Sen tomon o'tib bo'lmas.  
O'tib bo'lmas, ammo sendan,  
Kechib ham ketib bo'lmas.*

*Olislardan termularman,  
Jarning u qirg'og'iga.*

*Yana qancha bardosh bergum  
Bilmam yurak dog'iga.*

*O'rtamizda ulkan jarlik,  
Uchay desam qanot yo'q.  
Endi jarga sakragayman,  
Menga sensiz hayot yo'q!*

## **ISHQ NIMA?**

*Ishq nima? Iztirob, azob saylimi?  
Majnunin sevmagan Layli Laylimi?  
Sog'inchning oxiri bordir-ku, axir,  
Qaldirg'och, sen bilan ketsam maylimi?*

*Yer qattiq, koinot olisdir menga,  
Hisga boy bu dunyo behisdir menga,  
Qoraqosh qanoting azizdir menga,  
Qaldirg'och, sen bilan ketsam maylimi?*

*Axir, bahor o'tdi, o'tdi-ku yoz ham,  
Nozmi bu? Shunchalar bo'lar-da noz ham,  
Goh qadrin yo'qotar ekan olmos ham,  
Qaldirg'och, sen bilan ketsam maylimi?*

*Beqadr dunyoda nima ham qildim,  
Bilmam mag'rur boshim nega xam qildim,  
Sog'inch saroyini muhtasham qildim,  
Qaldirg'och, sen bilan ketsam maylimi?*

*Quvonch o'tib ketdi, qayg'u o'tmadi,  
Hayot g'amin mendan darig' tutmadi,  
Unga jon uzatdim, qo'l uzatmadi,  
Qaldirg'och, sen bilan ketsam maylimi?*

*Sog'inch vujudimda oqar qondayin,  
Dilim pora bo'lar eslagan sayin,  
Men ham bir bor Uni sog'intirayin,  
Qaldirg'och, sen bilan ketsam maylimi?*



## ONAJON

*Dilimni yoritmas na qo'shiq, na she'r,  
Go'yoki teskari aylanadi yer,  
Bezdim aldov to'la latif so'zlardan  
Onajon, bir bora alla aytib ber.*

*Ko'nglimni atayin tirnab ko'rayin,  
Og'riydimi yo'qmi sinab ko'rayin,  
Bir lahza yig'lashga unnab ko'rayin,  
Onajon, bir bora alla aytib ber.*

*Bas, endi uyqudan uyg'onsin yurak,  
Yo kuyib kul bo'lsin yo yonsin yurak.  
Agar hayot bo'lsa to'lg'onsin yurak,  
Onajon, bir bora alla aytib ber.*

*Eshitdim, keng sahna ekan bu olam,  
San'atkordek ekan bunda har odam,  
Ortiq rollaringga yetmas irodam,  
Onajon, bir bora alla aytib ber.*

*Qara, bu mittivoy bunchalar mayin,  
Uning kulgichiga yo aylanayin.  
Kel, men ham chaqaloq bo'lib qolayin,  
Onajon, bir bora alla aytib ber.*

## **QISH HAM KIRIB KELDI...**

*Qish ham kirib keldi qilich oʻynatib,  
Oppoq qorga boqib seni oʻyladim.*

*Oppoq qor parchasi bagʻrimni tildi,  
Seni qahratondan asragim keldi.*

*Bahorning eng goʻzal gulin izladim,  
Keyin... Keyin yana seni esladim.*

*Berahm barmoqlar gullarni yuldi,  
Seni yulgʻichlardan asragim keldi.*

*Yozda boʻlgim keldi senga soyabon,  
Yomon keldi axir bu yil saraton.*

*Parchalagan kabi zargar gavharni,  
Kuz ham ayamadan toʻkdi barglarni.*

*Yaproqni bosdim-u dilimni ezdim,  
Kuzda ham yonimda yoʻqliging sezdim.*

*Qalb sogʻinch azobi neligin bildi,  
Seni sogʻinchlardan asragim keldi.*

## **KUZ OXIRLAB BORAR...**

*Kuz oxirlab borar tobora,  
Yuzlarimdan chimchilaydi qish.  
Oppoq qorga burkanar olam,  
Yuragimga qo' nar oppoq qush.*

*Oppoq qushga o' xshar yangi yil,  
Qanotlari par kabi mayin.  
Nelarnidir sog'inari ko'ngil,  
Sog'inchi ortari yil o'tgan sayin.*

*Uy to'rida qadrdon archa,  
Qadrondir o'yinchoqlar ham.  
Faqat o'zim bezagim kelar,  
Qizg'onaman uni hammadan.*

*Sog'inaman bolaligimni,  
Yuragimda armonlar xil-xil.  
Bergim kelmas uni hech kimga,  
Bolalikni qizg'onadi dil !*



## GʻURUR

*Borgim kelar yoningga har kun,  
Har kun gʻurur toʻsar yoʻlimni.  
Koʻzlarimga gʻazab-la boqib,  
Borma deya tutar qoʻlimni.*

*Borgim kelar yoningga har kun,  
Har kun gʻurur toʻsar yoʻlimni.  
Toʻrt tomonga devorlar bitib,  
Oʻrab tashlar oʻng-u soʻlimni.*

*Borgim kelar yoningga har kun,  
Har kun gʻurur toʻsar yoʻlimni.  
Eltar deya tashlayman soyga  
Senga uzgan atirgulumni.*

*Borgim kelar yoningga har kun,  
Har kun gʻurur toʻsar yoʻlimni.  
Oʻtkazarman tirik murdadedek  
Sensiz oʻtgan har bir kunimni.*

*Borgim kelar yoningga har kun,  
Har kun gʻurur toʻsar yoʻlimni.  
Yashayapman bir ojiz mahkum  
Kutayotgan kabi oʻlimni...*

*Borgim kelar yoningga har kun!*

## **KUZ KELDI**

*Kuz keldi...  
Xazonlar to'kildi bir-bir,  
Xazonga qo'shilib to'kildim men ham.  
Yaproqlar ezildi, bilmam, negadir  
Xuddi yaproq misol ezildim men ham.*

*Kuz keldi...  
Shamollar men suygan bargni  
Uchirib ketdilar allaqayoqqa.  
Endi qanday qilib avray yurakni  
Axir, shuncha qayg'u bitta yaproqqa?*

*Kuz keldi...  
Samoni qopladi bulut,  
Yuragimga yog'di kuz yomg'irlari.  
Xazonrez bog'larda og'ir bir sukut,  
Yalang'och daraxtlar unsiz yig'ladi.*

*Kuz keldi...  
Yurakka azoblar to'ldi,  
Na yig'lay olaman, na bir kulaman.  
Axir, kuzda shuncha bo'larim bo'ldi,  
Ertaga qish kelsa nima qilaman?*

*Kuz keldi...  
Kuzdan-da battar to'kildim...*

## SAVOL

*Nigohim xayoliy intilish bilan  
Nafis sochlaringni mayin taradi.  
Hayot iboratmas axir xayoldan,  
Xayollardan meni kim qutqaradi?*

*Koʻzlarim izlaring izlab darbadar,  
Bilmam, seni yana qachon koʻradi.  
Qalbidam sogʻinchli shamollar esar,  
Shamollardan meni kim qutqaradi?*

*Yuragim koʻksimga zardali urib,  
Har bir zarbasida isming soʻradi.  
Soʻroqlar jonimni olar sugʻurib,  
Savollardan meni kim qutqaradi?*

*Oshiq dilim — endi dardli majnuntol,  
Qaygʻu koʻkragimga makon quradi.  
Bir jonga ming bir dard, ming bitta zavol,  
Zavollardan meni kim qutqaradi?*

*Gʻururim poyingga nochor choʻkdi tiz,  
Oʻtli koʻzlaringga oʻksib qaradi.*

*Esiz ishq, muhabbat, sadoqat esiz,  
Uvollardan meni kim qutqaradi?*

*Vujudim alamlar bag'rida nogoh,  
Kun sayin gul kabi so'lib boradi.  
Malol kelmoqdadir jonga yashamoq,  
Malollardan meni kim qutqaradi?*



## **KUN KELADI...**

*Kun keladi koʻngil bogʻingdan,  
Sevgi gulin uzib ketarman.  
Agar meni begona etsang,  
Ishq qalʼasin buzib ketarman.*

*Sen, Farhod-u Majnun boʻl dema,  
Farhod nima, Majnunlar nima?  
Telbalikda, devonalikda  
Majnundan ham oʻzib ketarman.*

*Qalbim yonib hajr-u sogʻinchdan,  
Yuzda kulib, yosh toʻkib ichdan,  
Har kun ming bir xayollar bilan,  
Sen tomonga suzib ketarman.*

*Boqqa kirsam gilos quralay,  
Dilim qonar qora gilosday,  
Qon dilimdan sen uchun atay,  
Dur — marjonlar tizib ketarman.*

*Koʻklam keldi koʻk libos bichib,  
Koʻzlaringga koʻz tikdim choʻchib.*

*Ket desang bas, ko'klamdan kechib,  
Xazon bo'lib to'zib ketarman.*

*Bandi etib armon tog'iga,  
Otsang meni hijron dog'iga,  
Xazon bo'lgan gilos shoxiga  
Yuragimni osib ketarman!*



## YURAGIMNI QULFLAB OLAMAN

*Yuragimni qulflab olaman,  
Endi sen ham kira olmaysan.  
Yuragimni qulflab olaman,  
Azobimni koʻra olmaysan.*

*Ketavergin, ochiqdir yoʻling,  
Kerak emas menga hech taskin.  
Qoʻllarimdan tutmasa qoʻling  
Bu hayot yoʻq deganimas-ku.*

*Yuragimni qulflab olaman  
Va hech kimga ochmayman uni.  
Dardlarimni quvib solaman,  
Unutaman barcha qaygʻuni.*

*Unutaman endi seni ham,  
Unutilar endi hammasi.  
Hali sensiz shunday yashayman  
Odamlarning kelar havasi.*

*Men kulganda kuladi olam,  
Baxtga toʻlib yashayman shaksiz.  
Faqat basdir oʻlib qolmasam,  
Yashay olsam basdir yuraksiz.*

*Yuragimni qulflab olaman!*

## **YANGI YIL**

*Bu oqshom yangi yilni  
Oh bilan kutib oldim.  
Azobga o'rab dilni,  
Qorqizni sevib qoldim!*

*Oppoq yuzli qor pari,  
Oppoq sochlari tolim.  
Chaqnab turar ko'zlari,  
Qorqizni sevib qoldim!*

*Bayram ham o'chdi yoddan,  
Tamom, unda xayolim.  
Uzilib bu hayotdan  
Qorqizni sevib qoldim!*

*Boqma menga darg'azab,  
Qorbobo, bo'lma zolim.  
Bor-yo'g'i bir bor qarab  
Qorqizni sevib qoldim!*



*Yuragim yonar bu dam,  
Ne kechar endi holim?  
Ketmoqligin bilsam ham  
Qorqizni sevib qoldim!*

*Bir bor bosay bag'ringa,  
Muzlab qolsin bu jonim.  
Qorlar yog'sin qalbimga,  
Qorqizni sevib qoldim!*



## TO'YDA

*Kuyl*a hofiz, ovozing  
*Yerni larzaga solsin.*  
*Hamma unga baxt tilab,*  
*Qo'liga qadah olsin.*

*Kuyl*a hofiz, kuylaring  
*Darmon bo'lsin dardimga.*  
*Endi sevgining o'zi,*  
*Yig'layversin qadriga.*

*Kuyl*a hofiz, davrani  
*To'ldirib o'ynagayman.*  
*Dilimdagi alamni*  
*O'ldirib o'ynagayman.*

*Kuyl*a hofiz, muhabbat,  
*Yerda yanchilib ketsin,*  
*Sozlaringning sadosi*  
*Jonga sanchilib ketsin.*

*Hech boʻlmasa toʻy toʻyday  
Oʻtishi uchun kuyla,  
Pariqiz yot qoʻlidan  
Tutishi uchun kuyla.*

*Kuyla hofiz, men oʻzim  
Boshlay qistir-qistirni.  
Endi qalbga koʻmaman,  
U va men bilgan sirni.*

*Kuyla hofiz, shoʻxidan,  
Nay nolasi yoʻgʻidan!*



## QIZG'ONDIM

*Ko'klamni xazondan qizg'ondim,  
Yaxshini yomondan qizg'ondim.  
Sen sira qayg'uga botma deb,  
Orzuni armondan qizg'ondim.*

*Ko'klamim xazonga aylandi,  
Yaxshilar yomonga aylandi.  
Ko'zlaring yoshlandi nogahon,  
Orzular armonga aylandi.*

*Sirlarni so'zlardan qizg'ondim,  
Yurakni muzlardan qizg'ondim.  
Men seni farishtam, jonim deb,  
Ming yomon ko'zlardan qizg'ondim.*

*Sirlarim til bo'lib so'zladi,  
Yuragim muzladi, muzladi.  
Qalbidam asragan gulimni  
Nahotki, o'zgalar ko'zladi.*

*Hayotni qizgʻondim gʻurbatdan,  
Baxtimni qaygʻudan, kulfatdan.  
Jon kabi berkitib koʻksimga,  
Koʻzlaring qizgʻondim zulmatdan.*

*Hayotim gʻurbatga aylandi,  
Shodligim kulfatga aylandi.  
Ayovsiz sugʻurib jonimni  
Koʻzlaring zulmatga aylandi.*

*Visolni vidodan qizgʻondim,  
Alamli nidodan qizgʻondim.  
Men seni bu yer-u samodan,  
Hattoki, Xudodan qizgʻondim.*

*Alamlar menga yuz burdimi?  
Qalbimga qaygʻu in qurdimi?  
Ayt, nega ayrildim men sendan,  
Bilmadim, yo Xudo urdimi?!*

## **DARD**

*Zarb bilan shudgorga urildi ketmon,  
Tuproqlar qo'zg'aldi, ko'tarildi chang.  
Og'riqdan buralib ingradi nolon  
Yarmini yo'qotib qo'ygan chuvalchang.*

*Aslida bu dunyo — azob dunyosi,  
Tirik jonzod borki, unga dard hamroh.  
Zarb bilan urildi hayot ketmoni,  
Eh, kimdir yarmini yo'qotdi nogoh.*



## **KETMA**

*Ketma!*

*Ortingdan shamoldek yugurar xayol.  
Yoʻllaringni toʻsgan xayoliy ruhim,  
Magʻrur qaddin bukib soʻraydi sendan!*

*Ketma!*

*Yalinar,yolvorar senga kipriklar,  
Koʻzlarim oʻtinchli nigohlarini  
Koʻzlaringga tikib soʻraydi sendan!*

*Ketma...*

*Hayotim xazonga aylana ketasang.  
Koʻksim, izlaringga bir xazon kabi,  
Yuragimni toʻkib soʻraydi sendan!*

*Ketma...*

*Poyingga xor-u zor toʻkilar yomgʻir.  
Yomgʻirga aylangan osmon gʻururim,  
Poyingga tiz choʻkib soʻraydi sendan!*

## **MENGA OG'IR**

*Hayot nomli jang maydonida  
Armon bilan jon talashar ishq.  
Bir qiz yig'lar eshik ortida,  
Menga og'ir unga "ket" deyish.*

*O'rtamizda faqat shu eshik,  
Uni ochish — bu eng mushkul ish.  
Qo'lim kalta, vujudim egik,  
Menga og'ir unga "ket" deyish.*

*U eshikni qoqadi bot-bot,  
Yuragimga sanchiladi nish.  
Go'yo do'zax tuyular hayot,  
Menga og'ir unga "ket" deyish.*

*Azoblarga chidayman zo'rg'a,  
Bosilgandir mahkam tishga-tish.  
Ostonada u hamon yig'lar,  
Menga og'ir unga "ket" deyish.*

*Oxir nochor yig'layman men ham,  
Ko'chib bo'lgan qolipidan g'isht.*



*Ichgan kabi ilohiy qasam,  
Menga ogʻir unga "ket" deyish.*

*Kir deyishni xohlayman juda,  
Goho kamlik qilarkan xohish.  
Gʻazab, alam bari behuda,  
Menga ogʻir unga "ket" deyish.*

*Asta-sekin keta boshlar u...  
Endi u yoʻq, endi u bir tush.  
Yuragimda qoladi mangu,  
Menga ogʻir unga "ket" deyish!*



## **BAXT**

*Men baxtli odamman, hayotim to'kis,  
Qalbgga jo etganman yashash gashtini.  
Biroq goh-gohida ko'ksimda bir his  
Qaytarib turadi shodlik shashtini.*

*Men baxtli odamman, atrofim chaman,  
Nafas olgan sarim ko'nglim quvnaydi.  
Faqat boshpanasiz bir yetim armon,  
Goho yuragimga kelib tunaydi.*

*Men baxtli odamman, eng baxtli odam,  
Sira yig'lamayman, o'ksimas dilim.  
Menga begonadir qayg'u, alam, g'am,  
Menga begonasan endi, sevgilim.*

*Men baxtli odamman, dunyo kaftimda,  
Bugun qo'lim hatto oyga yetadi.  
Biroq har gal seni eslaganimda  
Hammasi yo'qlikka singib ketadi.*

*Hamon yuragimda o'zingsan tanho,  
Hamon dilim faqat seni taniydi.  
Men baxtli odamman, baxtliman ammo,  
Tizzangga bosh qo'yib o'lsam qaniydi.*

## ILTIMOS

*Bu qoʻshiqning kuylari  
Koʻksim kuydirar atay.  
Hofiz, biroz ket nari,  
Shu qoʻshiqni men aytay.*

*Bunda mening ruhim bor,  
Azob-u anduhim bor.  
Bunda yurak ohim bor,  
Shu qoʻshiqni men aytay.*

*Bir bor aytsam yetardi,  
Dilimni shod etardim.  
Sendan nima ketadi?  
Shu qoʻshiqni men aytay.*

*Hofiz, meni mast de ma,  
Senga yarashmas de ma,  
Bor, sheʻringni yoz de ma,  
Shu qoʻshiqni men aytay.*

*Hech kim tinglamasa ham,  
Dardim anglamasa ham,*

*Jo'shib yangramasa ham,  
Shu qo'shiqni men aytay.*

*Do'stim, biroz bo'l tanti,  
Armonga etma bandi.  
Men ham shu yer farzandi,  
Shu qo'shiqni men aytay.*



## **IZLAYMIZ...**

*Izlaymiz, har yonga giryon chopamiz,  
Har nihol, har xasning poyin oʻpamiz.  
Yigʻlama, bas endi doʻstim, Majnuntol,  
Senga Laylitolni qaydan topamiz?*

*Hayot bu — visoldan firoqlari koʻp,  
Sogʻinchda yoshlangan qaroqlari koʻp,  
Dunyoning javobsiz soʻroqlari koʻp,  
Senga Laylitolni qaydan topamiz?*

*Oshiqlik — koʻngilni ye mirguvchi gʻam,  
Yurak qonin ichib se mirguvchi gʻam,  
Noshudligim uchun kechir, doʻstginam,  
Senga Laylitolni qaydan topamiz?*

*Hayotim boricha baxtingni tilay,  
Oʻzim aylanayin, oʻzim oʻrgilay,  
Kel endi, bir bora kulganing koʻray,  
Senga Laylitolni qaydan topamiz?*

*Yigʻlasang koʻksimga tomadi yoshing,  
Yuragimni ezar egilgan boshing,  
Parilar, malaklar boʻlsin yoʻldoshing,  
Senga Laylitolni qaydan topamiz?*

*Gar bilsang, dardimiz bir ekan do'stim,  
Jonimizni o'yar bir tikan do'stim,  
Laylolar bizlarni tark etgan do'stim,  
Senga Laylitolni qaydan topamiz?*

*Tong chog'i yoningga bir gul qadadim,  
Bir gulki, nomini Laylo atadim,  
O'zimni aldadim, seni aldadim,  
Senga Laylitolni qaydan topamiz?*



\* \* \*

*Meni tanidingmi?*  
*Qara, men oʻsha...*  
*Tunlari ertaklar aytguvchi odam.*  
*Saharlar poyingga jonini toʻshab,*  
*Armonlarga jonsiz qaytguvchi odam.*

*Meni tanidingmi?*  
*Qara, men oʻsha...*  
*Ishqini boshiga toj aylaguvchi.*  
*Ismingga farishta soʻzini qoʻshib,*  
*Seni tanda jondek avaylaguvchi.*

*Meni tanidingmi?*  
*Qara, men oʻsha...*  
*Osmonlarga boqib seni sogʻingan.*  
*Quyoshga intilgan niholga oʻxshab,*  
*Seni mabud bilgan, senga sigʻingan.*

*Meni tanidingmi?*  
*Qara, men oʻsha...*  
*Ha, oʻsha olovli nigohing quli.*  
*Bir umr yashadim shu oʻtga tashna,*  
*Boʻlgim keldi mangu shu oʻtning kuli.*

*Meni tanidingmi?  
Qara, men o'sha...  
Orzularni quvib armonni tutgan.  
Bu foniy dunyoda yolg'iz sen deya,  
Sening baxting uchun o'zni unutgan.*

*Meni tanidingmi?  
Qara, men o'sha...*





## **SENI ESLATAR**

*Yuzim silamoqda sohir shabboda,  
Mayin shabbodalar seni eslatar.  
Men ham bir vayrona vayron dunyoda,  
Ganchkor koshonalar seni eslatar.*

*Shivirlab mahzun kuy boshlaydi oqshom,  
Kuylabon dilimni gʻashlaydi oqshom,  
Meni ming azobga tashlaydi oqshom,  
Sehrli nolalar seni eslatar.*

*Ajib oʻyin boshlab jannat hurlari,  
Koʻksimga yogʻdirar oyning nurlarin,  
Yonarman oy yogʻdu sochgani sari,  
Yogʻduli tolalar seni eslatar.*

*Seni eslatadi yomgʻirlar isi,  
Nafis tomchilarning marvarid tizi,  
Yuragimga koʻchib kamalak izi,  
Nurli favvoralar seni eslatar.*

*Dardlarim har lahza yangidan-yangi,  
Izlayman, yoʻqdayin qaygʻuning soʻnggi,  
Sogʻinch bu — dahshatli tushlarim oʻngi,  
Sirli afsonalar seni eslatar!*

## **SENGA YAXSHI KO'RINAMAN DEB**

*Senga yaxshi ko'rinaman deb,  
Ko'ylak kiydim egnimga oppoq.  
Bo'g'lsa ham hatto nafasim  
Taqib oldim qalin bo'yinbog'.*

*Yo'lga chiqdim ko'ksim hapqirib,  
Oyog'imda yaltiroq tufli.  
Kiyib oldim qop-qora kastyum,  
Bo'lgim keldi hammadan ko'hlik.*

*Senga yaxshi ko'rinaman deb,  
Sochimni ming turda taradim.  
O'z-o'zimdanda ko'nglim to'lmayin,  
Ko'zguga ming bora qaradim.*

*Sezmagandek o'tdim beparvo,  
Suluv qizlar labin burganda.  
Yuragimda yonsa-da olov,  
Kulib turdim seni ko'rganda.*

*Menga yaxshi ko'rinaman deb,  
Oppoq ko'ylak kiydingmi sen ham.*

*Boʻlibsan-ku hammadan koʻhlik,  
Yo men kabi kuydingmi sen ham.*

*Qanot yozib tushdim oʻyinga,  
Menga qarab kulishing uchun.  
Toʻyib-toʻyib oʻynadim-kuldim,  
Sening baxtli boʻlishing uchun.*

*Tan olaman, hamma ayb menda,  
Sevgimizning boshiga yetdim.  
Senga yaxshi koʻrinaman deb,  
Toʻying buzmay, jimgina ketdim.*



## DUNYO

*Ertakmakon bag'ringda,  
Men bir ertakman, Dunyo.  
Mehmoningman shahringda,  
Senga kerakman, Dunyo.*

*Yonib turgan shamingman,  
Goh to'kis, goh kamingman,  
Quvonchingman, g'amingman,  
Senga kerakman, Dunyo.*

*Bolangman-ku, et faxr,  
Bo'lma buncha toshbag'ir,  
Xazonsiz kuz yo'q axir,  
Senga kerakman, Dunyo.*

*So'zlaganda zaboning,  
Goh yuzing, goh tovoning,  
Yaxshim, men bir yomoning,  
Senga kerakman, Dunyo.*

*Kechib bo'y-u bastimdan,  
Yuz o'girib rasmimdan,*

*Dodlayverma dastimdan,  
Senga kerakman, Dunyo.*

*Qachon do'stdek yo'qlaysan?  
Tokay bag'rim tig'laysan?  
Ketib qolsam yig'laysan,  
Senga kerakman, Dunyo.*



## **NOGIRON**

*Tog' ortiga berkindi quyosh,  
Moviy osmon rangi bo'g'ildi.  
Ona bo'g'zin o'ydi achchiq yosh,  
Chaqaloq nogiron tug'ildi.*

*Otaning kelishga yuzi yo'q,  
Bu qanday osh bo'ldi — tuzi yo'q,  
Kiprigi, qoshi bor... Ko'zi yo'q,  
Chaqaloq nogiron tug'ildi.*

*Nima bu? Taqdirning o'chimi?  
Ko'z o'yar shamshirning o'chimi?  
Ko'ringlar, og'uning kuchini,  
Chaqaloq nogiron tug'ildi.*

*Tingla, ey nafsning gadosi,  
Shaytoniy kukunning adosi,  
Ko'z bera olarmi otasi,  
Chaqaloq nogiron tug'ildi.*

*Bechora tinmasdan ingalar,  
Ingasi yurakni tilkalar.  
Hayratdan qisilgan yelkalar,  
Chaqaloq nogiron tug'ildi.*

*Mittivoy, manglaying buncha shoʻr?  
Yer-u koʻk nolangga boʻlar joʻr.  
Sen emas, aslida otang koʻr!  
Chaqaloq nogiron tugʻildi.*

## **HAYOT**

*Bir nigoh quliga aylandim nogoh,  
Bir nigoh jonimdan ham aziz edi.  
Unga borligʻimni baxsh etdim biroq,  
U menga jilmayib "alvido" dedi.  
Muhabbat — endi bir dilni oʻrtar bayt,  
Hayot, meni nima qilib qoʻyding ayt?*

*Doʻst deya qoʻynimda saqlabman ilon,  
Bir kun u nogahon zahrini sochdi.  
Yuragimdan oqib laxta-laxta qon,  
Oʻzimga ishonmay, oʻzimdan qochdim.  
Koʻzlarim shunchalar koʻrmidi u payt,  
Hayot, meni nima qilib qoʻyding ayt?*

*Gohida otamni ranjitdim bisyor,  
Onamning koʻzlarin yoshladim gohi.  
Bugun dilda afsus, qalbda ming ozor,  
Mening boʻynimdadir dunyo gunohi.*

*Ayblarim yuvayin bir on ortga qayt,  
Hayot, meni nima qilib qo'yding ayt?*

*Kun kelar, ko'zimga to'ladi dunyo,  
Omonat jon bir kun tanni tark etar.  
Bilmasman u damda taqdiri fano,  
Peshonamga qay bir manzilin bitar.  
Nomim etilgaydir qay daftarda qayd,  
Hayot, meni nima qilib qo'yding ayt ?*





## **BOLALIK**

*Tonggi buloq suviday  
Pok va beg'uborsan sen.  
Endi qaylardan izlay?  
Erib ketgan qorsan sen.*

*Kuz bag'rida xazonman,  
Yam-yashil bahorsan sen.  
Cho'lda qaqragan jonman,  
Erib ketgan qorsan sen.*

*Ko'zlarimda jolasan,  
Sog'inchsan, xumorsan sen.  
Dilim o'rtar nolasan,  
Erib ketgan qorsan sen.*

*Endi faqat chang bosgan  
Suratlarda borsan sen.  
Hali yog'ib-yog'masdan  
Erib ketgan qorsan sen.*

*Gilos, uzum, olmasan,  
Qip-qizil anorsan sen.  
Bir zarrasi qolmasdan  
Erib ketgan qorsan sen.*

*Endi qancha intilmay  
Qo'lim yetmas dorsan sen.  
Astagina bildirmay  
Erib ketgan qorsan sen.*

## **MEN SIZNI...**

*Hovuchlab sizga dur tutadi,  
Ko'zyoshdan marjonlar tizgaysiz.  
Ko'nglingiz kimnidir kutadi,  
Siz meni hali ko'p eslaysiz.*

*Oqshomlar osmonga termulib,  
Yulduzlar bag'ridan izlaysiz.  
Ko'ksingiz tilaman tig' bo'lib,  
Siz meni hali ko'p eslaysiz.*

*Mayliga, bir lahza bo'lsa-da,  
Men bilan ko'rishmoq istaysiz.  
Sog'inch o'z kuchini ko'rsatar,  
Siz meni hali ko'p eslaysiz.*

*Do'st kabi quchasiz azobni,  
Baxtni "sen", armonni "siz"laysiz.  
Varaqlab men yozgan kitobni,  
Siz meni hali ko'p eslaysiz.*

*Yigʻlaysiz, dilingiz ezilar,  
Orqaga qaytolmas izdaysiz.  
Har lahza yoʻqligim sezilar,  
Siz meni hali koʻp eslaysiz.*

*Har oqshom sochingiz silayman,  
Bagʻrimga bosaman, sezmaytiz.  
Men sizni sogʻinchga oʻrayman,  
Siz meni hali koʻp eslaysiz.*



## **TO'RTLILAR**

*Arslonlar bir bo'lib nara tortganda,  
Zamin-u falakni dahshat bosadi  
Va lekin arslonni arslon sotganda  
Itga o'lja bo'lar arslon jasaki.*

\* \* \*

*Gar hayotsan, do'stim, shunday inson bo'lki,  
Har bir bosgan qadamingda gul ko'karsin.  
Agar bir kun o'lar bo'lsang shunday o'lki,  
Bolam deya tobutingni El ko'tarsin.*



## MARSIYA

*Navoiylik iste'dodli yosh aktyor  
Alisher Muqimovga*

*Bu qanaqa kino, bu qanaqa rol,  
Ayt, qarsak chalishim kerakmi endi.  
Kadrlar, dubllar... hammasi bir pul,  
Sendan dastxat olish ertakmi endi.*

*Hatto salomimga olmaysan alik,  
Qarshingda turibman egib boshimni.  
Ayt, nima istaysan, yoki shunchalik  
Ko'rging kelyaptimi ko'zda yoshimni.*

*Bu qanaqa kino, qanday senariy,  
Bugun sen farishta rolin oldingmi.  
Shuncha olqish kamday endi jannatda  
Mukofot olishni istab qoldingmi?*

*Huzur topasanmi jonimni siqsang,  
Bag'rimni ayovsiz tilib ketding-ku.  
Xafa bo'lmas edim boshimga chiqsang,  
Yelkamga og'irlik qilib ketding-ku.*

*Bu qanaqa kino, bu qanaqa rol,  
Olish mumkinmasmi hatto nafas ham.  
Sening ko'kragingga sanchilgan qurol  
Mening yuragimga botmoqda bu dam.*

*Ko'ksinga alamli nolalar indi,  
Vujudim titratib esdi shamoling.  
Yetar, aktyorlikni yig'ishtir endi,  
Senga yarashmabdi oxirgi roling.*

*Bu qanaqa kino, bu qanaqa rol!*



## **JONLI QO'G'IRCHOQ**

*Hamon yo'qdir bunda o'zligim,  
Yigirma yil yashadim qariyb.  
Takrorlashib har on do'stligin  
Yozisharlar menga senariy.*

*Mayli deyman jimgina kulib,  
Yo'q deyishga bormaydi tilim.  
Allaqachon bo'lishgan bilib  
Kim bo'lishin mening sevgilim.*

*Kiydirarlar kiyimlarimni,  
Qachon qayga borishga qarab.  
Tegolmayman o'zim hattoki,  
Sochimni ham qo'yishgan tarab.*

*Ular bilar qachon yig'lashim,  
Qachon qanday kulishimni ham.  
Ular bilar kimga uylanib  
Nechta bolam bo'lishini ham.*

*Bezatishar xohlaganday men  
Yangi yilning archasidayman.  
Ular — qoya, ular — ulug' tog',  
Men uning bir parchasidayman.*

*Ular bilar qachon o'zishim,  
Bilar qachon yon berishimni.  
Bilgim kelar, bilisharmikan  
Ular qachon jon berishimni!*





## 1941-YIL

*Xat tashuvchi kelib eshikni qoqdi,  
Ona xursand boʻlib ochdi eshikni.  
"Onajon, oʻgʻlingdan olib keldim xat,  
Ona, kechir meni, biroz kechikdim".*

*Ona xatni oldi koʻksi hapqirib,  
Soʻng oʻqiy boshladi yoshlanib koʻzi.  
Xatning ichidagi suratga qarab,  
Dedi: Koʻrkam askar boʻlibdi qoʻzim.*

*Xat tashuvchi kelib eshikni qoqdi,  
Ona xursand boʻlib ochdi eshikni.  
"Ona, xat keltirdim bolaginangdan,  
Ona, kechir meni, yana kechikdim."*

*Ona xatni oʻqib yigʻladi duv-duv,  
Oʻqigani sari sogʻinchi ortdi.  
Bolamning hidi bor dedimi xatni  
Oʻpib-oʻpib yuz-u koʻziga surtdi.*

*Xat tashuvchi kelib eshikni qoqdi,  
Ona eshik ochdi koʻzlarida choʻgʻ.*

*"Ona kechir meni, kechir Onajon,  
Afsuski bu safar kechikkanim yo'q".*

*Onajon, o'zingni qo'lga ol faqat,  
Onajon, keltirdim senga qora xat".*

*Xat tashuvchi ketdi,  
Boshqa kelmaydi.*



## **HAYRAT**

*It uwillar boʻri kabi,  
Aslida bir laycha it.  
Ha, bundayin itlar kammi?  
Boʻriman, der qancha it.*

*Bu itlarga boqib har dam  
Xayollarga tolaman.  
Goho asl boʻrini ham  
It deb oʻylab qolaman.*

## TUTQATOR

*Ko'zda yoshim marjon qilib tizdilar,  
Bolta urib jon-jonimni ezdilar.  
Ko'klamlarim bir lahzada kuz bo'ldi,  
Tutqatorning tutlarini kesdilar.*

*Bo'ylariga bo'ylab bo'yim o'sardi,  
Shoxlarida bobom ruhi kezardi.  
Bugun yuzim tut yeganday qizardi,  
Tutqatorning tutlarini kesdilar.*

*O'xshab qoldim Laylosi yo'q Qaysga,  
Axir qirq jon to'ygan-ku bir mayizga.  
O'tin yetmay qoldimi yo raisga,  
Tutqatorning tutlarini kesdilar.*

*Ular menga najot tilab boqqandir,  
Izlarimga ko'zyosh ila boqqandir.  
Shu tutlarda onam pilla boqqandi,  
Tutqatorning tutlarini kesdilar.*

*Suyuklarsiz qanday suyay jonimni,  
Ko'kragimni yorib, o'yay jonimni,  
Yarasiga bog'lab qo'yay jonimni,  
Tutqatorning tutlarini kesdilar.*

## **HAYOT QO'SHIG'I**

*Nega keldim dunyoga,  
O'laman-ku baribir.  
Bahor o'tib, yoz o'tib  
So'laman-ku baribir.  
Tor qabrga qilichday  
To'laman-ku baribir.  
Do'stlar, mening qabrimni  
Kengroq qilib qazinglar.  
O'lsam, qabrtoshimga  
U tirik deb yozinglar.*

*Asli Xudo bandasin  
Yaratgan-ku tuproqdan.  
Axir nega qo'rqayin  
Yana tuproq bo'lmoqdan.  
Jon deb jonim berardim  
Naf bo'lsaydi o'lmoqdan.  
Gar yurtga korim bo'lsa,  
Mayli dorga osinglar.  
O'lsam, qabrtoshimga  
U tirik deb yozinglar.*

*Kapalakar bor-yo'g'i  
Bir kungina yasharmish.  
Shu bir kun ham olamga  
Olam zavq ulasharmish.  
Hatto ketar chog'i ham,  
Hayotni kuylasharmish.  
Kapalak qanotidan  
Menga qanot yasanglar.  
O'lsam, qabrtoshimga  
U tirik deb yozinglar.*

*Mayli endi, keldimmi,  
Suray hayot gashtini.  
Bilganimcha yayrayin,  
So'ndirmanglar shashtimni.  
Gar bog' yaratolmasam,  
Yaratay o'z dashtimni.  
Gul bo'lmasa, hech qursa  
Yantoqlarin uzinglar.  
O'lsam, qabrtoshimga  
U tirik deb yozinglar.*

*Ketar bo'lsam, gohida  
Eslab qo'ying meni ham.  
Qalbingiz bir burchiga  
Gizlab qo'ying meni ham.*

*Bir yoʻqolgan buyumdek  
Izlab qoʻying meni ham.  
Biz bu foniyl dunyoga  
Kelib-ketar — osiylar.  
Oʻlsam, qabrtoshimga  
U tirik deb yozinglar.*

*Hayot bu - katta shaxmat,  
Mot boʻlgim kelmayapti.  
Bu qadrdon dunyoga  
Yot boʻlgim kelmayapti.  
Ortimda bir iz qolmay.  
Hech oʻlgim kelmayapti.  
Oʻtkinchi bir shoirning  
Qalb nidosin sezinglar.  
Oʻlsam, qabrtoshimga  
U tirik deb yozinglar.*

*Kunduz quyosh, tunlari  
Nur sochay yulduz boʻlib.  
Gar chinor boʻlolmasam,  
Qolay bir ildiz boʻlib.  
Hech boʻlmasa toʻkilay,*

*Poyingizga kuz bo'lib.  
Yaproq misol dilimni,  
Xazon kabi bosinglar.  
O'lsam, qabrtoshimga  
U tirik deb yozinglar.*

*Istagim shu - keldimmi,  
Ortimda nomim qolsin.  
Qon yutib simirganim -  
Kuy to'la jomim qolsin.  
Jon-jonimga o't yoqqan,  
Qaynoq ilhomim qolsin.  
Gar hech narsa qolmasa,  
Mozorimni buzinglar.  
Qolsa, qabrtoshimga  
U tirik deb yozinglar.*





## VASIYAT

*Xazonlarni oralab  
Bogʻda tanho kezdi chol,  
Umri tugayotganin  
Ich-ichidan sezdi chol.*

*Ot minishni oʻrgatgan  
Otasini esladi.  
Beshigini tebratgan  
Onasini esladi.*

*Keyin kampirin eslab,  
Koʻzlariga toʻldi yosh.  
Toʻrt oʻgʻilning hech biri  
Boʻlmadi unga dildosh.*

*Uyga qaytdi xoʻrsinib,  
Joni chekib aziyat.  
Oldi qogʻoz va qalam,  
Yozish uchun vasiyat.*

*Hayhotdayin hovlini  
To'rt o'g'ilga teng bo'ldi.  
Garchi unga to'rt o'g'il  
Na yoqa, na yeng bo'ldi.*

*O'sha kuni Azroil  
Ko'rindimi ko'ziga.  
Kafanligin tayyorlab,  
Qabr qazdi o'ziga.*

*Erkatoylariga yuk  
Bo'lmasin deb jasadi.  
Mag'rur chol o'zi uchun  
Qabrtosh ham yasadi.*

*Oy to'lishgan oqshomda,  
Paymonasi to'ldi chol.  
Kalimasin keltirib,  
Tongga yaqin o'ldi chol.*

*Tong ham otdi, o'g'illar  
Berilmay ko'p jabrga,  
Otasini qo'yishdi  
O'zi qazgan qabrga.*

*Duo oʻqishib endi  
Otam ruhi shod dedi.  
Ammo toshni koʻrganda  
Toʻrtovlon ham “dod” dedi.*

*Toshga zarhal harf bilan  
Shunday soʻzlar oʻyilgan.  
“Farzandlardan esdalik”  
Deya yozib qoʻyilgan.*



## **BAXT NIMADIR?**

*Baxt nimadir?*

*Menga baxt — onajonim kulgusi.*

*Azob nima?*

*Azob bu — volidamning qayg'usi.*

*Dunyo nima?*

*Dunyo bu — mehrli ko'zlar sehri.*

*Daryo nima?*

*Daryo bu — onamning jo'shqin mehri.*

*Ka'ba nima?*

*Ka'ba bu — onajonim izlari.*

*Imon nima?*

*Imon bu — onajonim ko'zlari.*

*Duo nima?*

*Duo bu — ikki olam quyoshi.*

*Qiyomatchi?*

*Qiyomat — onalarning ko'z yoshi.*

## **BARIBIR...**

*Xayoldan oʻngimga aylangan tushim,  
Koʻnglimda koʻnglimga aylangan tushim,  
Soʻng meni begona aylagan tushim,  
Men seni baribir yaxshi koʻraman.*

*Quyosh nur sochganda seni eslayman,  
Oy yuzin ochganda seni eslayman,  
Har nafas olganda seni eslayman,  
Men seni baribir yaxshi koʻraman.*

*Sogʻinching koʻksimga tigʻdek botsa ham,  
Jon-jonimga metin oʻqdek botsa ham,  
Xotirang yurakka choʻgʻdek botsa ham,  
Men seni baribir yaxshi koʻraman.*

*Bir lahza boʻlsa-da diydorga zorman,  
Shu bir diydor uchun hayotda borman.  
Sensiz dunyolarda abgorman, xorman,  
Men seni baribir yaxshi koʻraman.*

*Balki sen shodliklar shahridadirsan,  
Baxtga lim ummonlar bahridadirsan.  
Yo, balki oʻzganing bagʻridadirsan,  
Men seni baribir yaxshi koʻraman.*

*Jonimga boylangan tilagim bilan,  
Sarobga aylangan tilagim bilan,  
Dardsizim, dard to'la yuragim bilan,  
Men seni baribir yaxshi ko'raman.*



## QALDIRG'OCH

*Qaldirg'och, onamga o'xshaysan mening!  
Onamday mehribon, onamday munis.  
Oftobro'y yuzingga boqib har kuni  
Onajonim mehrin etgaydirman his.*

*Qaldirg'och, yig'layman seni ko'rganda,  
Ko'zlarimdan sog'inch chiqadi toshib.  
Har bahor ayvonga in qurganingda,  
Onam qaytgan kabi qolaman shoshib.*

*Vujudim azobda, yuragim tilka,  
Menga bir dunyoning bo'yi va eni.  
Kelaqol, bir bora bosay bag'rimga,  
Qaldirg'och, onamga o'xshaysan mening!*

*Onamni eslatar mungli ko'zlaring,  
Onamday mushti par onajon qushim.  
Gohida sog'inchdan yongan kezlirim  
Bilmasdan "Ona" - deb yuborsam, tushun.*



\* \* \*

*Senga xayr de may ketgim kelgandi,  
Sarobga aylangan shirin tush kabi.  
Garchi, sensizlikda bo'lib qolsam-da,  
Qanoti kesilgan ojiz qush kabi.*

*Senga xayr de may ketgim kelgandi,  
Baxtingni o'zingga qaytarmoqchiydim.  
Axir, sen malika eding-ku jonim,  
Axir men shoh emas, oddiy soqchiydim.*

*Senga xayr de may ketgim kelgandi,  
Mayli, yuragingga to'lsa-da nafrat.  
Mayli, qarg'asang ham roziydim hatto,  
Faqat... sog'inmasang bas edi faqat.*

*Senga xayr de may ketgim kelgandi,  
Ko'zlaring yoshiga hushim yo'q edi.  
Axir, jondan ortiq sevardim seni,  
Axir, sendan aziz kishim yo'q edi.*



## SENIKIDIR

*Muruvvatda quyosh misol yongan diyor,  
Osmonidan mehr nuri tomgan diyor,  
Bor boʻyicha muhabbatga choʻmgan diyor,  
Bolangmanki, barcha mehring menikidir,  
Oʻzbekiston, jism-u jonim senikidir!*

*Amir Temur - erk-u adolatga sulton,  
Jaloliddin - koʻksida or yongan oʻgʻlon.  
Mir Alisher - otash yurak, bulbul zabon,  
Ajdodlarim ruhi - yodi menikidir,  
Oʻzbekiston, jism-u jonim senikidir!*

*Oʻgʻlin podshoh, otasini pir bilgan El,  
Onasin oy, qizlarini dur bilgan El,  
Qurʻonini ziyo bilgan, nur bilgan El.  
Koʻksingdagi pok iymoning menikidir,  
Oʻzbekiston, jism-u jonim senikidir!*

*Yurtim, senga koʻz tegmasin munchoq boʻlay,  
Gar non boʻlsang men unda bir ushoq boʻlay,  
Senda yashab, yana senga mushtoq boʻlay,  
Gʻurur-oring, nom-u shoning menikidir,  
Oʻzbekiston, jism-u jonim senikidir!*

\* \* \*

*Jimgina yashagan jimgina o'lar  
Hech kim yig'lamaydi, quvonmaydi ham.  
Uning na dushmani, na do'sti bo'lar,  
Odammas aslida jimgina odam.*

*Hayot bahslar bilan qiziq-da axir,  
Ranjimang gohida to'polon qilsam.  
Ko'zga yaqin bo'lmoq men uchun faxr,  
Kimdir yig'lab, kimdir kulsin-da axir!*



## TENGDOSHIMGA

*"Yoʻq, hali hammasi oʻtganmas!"*

**Usmon Nosir**

*Yoʻq, hali hammasi oʻtganmas,  
Shoirim, hammasi oldinda.  
Yozaver, toʻxtama bir kuni  
Haykaling yasalar oltindan.*

*Yoʻq, hali hammasi oʻtganmas,  
Sheʻr - qalbning davosi, yarasi.  
To hayot bor ekan betoʻxtov  
Yangraydi Navoiy naʻrasi.*

*Yoʻq, hali hammasi oʻtganmas,  
Toptamang bu ulugʻ ayyomni.  
Har safar qoʻlga jom tutganda  
Eslaysiz, siz Umar Hayyomni.*

*Yoʻq, hali hammasi oʻtganmas,  
Oʻtganmas Furqatlar, Fitratlar.  
Oybeklar, Choʻlponlar, Qahhorlar,  
Dunyoni hali koʻp titratar.*

*Yo'q, hali hammasi o'tganmas,  
Noo'rin gapirma, tilni tiy.  
Bor ekan Zaynab-u Kumushlar,  
To mangu barhayot Qodiriy.*

*Yo'q, hali hammasi o'tganmas,  
Yo'q, suvi qurimas dengizning.  
Dillarni hali ko'p o'rtaydi  
Xumori Aytmatov Chingizning.*

*Yo'q, hali hammasi o'tganmas,  
To dilda bor ekan muhabbat.  
Yig'latib, kuldirib, kuylatib,  
Qalblarda yashaydi muhabbat.*

*Yo'q, hali hammasi o'tganmas,  
Xotirlab har bitta harfini,  
Qo'msaysiz Mashrabni, Lutfiyni,  
Qo'msaysiz siz Rauf Parfini.*

*Yo'q, hali hammasi o'tganmas,  
Maqtamang yaltiroq unvonni.  
Qamanglar, otinglar, ko'minglar,  
Lek o'ldirolmaysiz Usmonni.*

*Yoʻq, hali hammasi oʻtganmas,  
Shoir deb kulma, ey olifta.  
Sheʻriyat neligin bilmasang,  
Bor, soʻra Abdulla Orifdan.*

*Yoʻq, hali hammasi oʻtganmas...*



## MUNDARIJA

<i>O'zbek o'g'li</i> .....	5
<i>Sahar turib</i> .....	6
<i>Adashgan xat</i> .....	7
<i>Usmon Nosirga</i> .....	9
<i>O'rtamizda</i> .....	11
<i>Ishq nima</i> .....	12
<i>Onajon</i> .....	14
<i>Qish ham kirib keldi...</i> .....	15
<i>Kuz oxirlab borar</i> .....	16
<i>G'urur</i> .....	17
<i>Kuz keldi</i> .....	18
<i>Savol</i> .....	19
<i>Kun keladi</i> .....	21
<i>Yuragimni qulflab olaman</i> .....	23
<i>Yangi yil</i> .....	24
<i>To'yda</i> .....	26
<i>Qizg'ondim</i> .....	28
<i>Dard</i> .....	90
<i>Ketma</i> .....	31
<i>Menga og'ir</i> .....	32
<i>Baxt</i> .....	34
<i>Iltilmos</i> .....	35

<i>Izlaymiz</i> .....	37
<i>Meni tanidingmi</i> .....	39
<i>Seni eslatar</i> .....	41
<i>Senga yaxshi ko'rinaman deb</i> .....	42
<i>Dunyo</i> .....	44
<i>Nogiron</i> .....	46
<i>Hayot</i> .....	47
<i>Bolalik</i> .....	49
<i>Men sizni</i> .....	50
<i>To'rtliklar</i> .....	52
<i>Marsiya</i> .....	53
<i>Jonli qo'ng'iroq</i> .....	55
<i>1941-yil</i> .....	57
<i>Hayrat</i> .....	59
<i>Tutqator</i> .....	60
<i>Hayot qo'shig'i</i> .....	61
<i>Vasiyat</i> .....	65
<i>Baxt</i> .....	68
<i>Baribir</i> .....	69
<i>Qaldirg'och</i> .....	71
<i>Senga xayr demay</i> .....	72
<i>Senikidir</i> .....	73
<i>Jimgina</i> .....	74
<i>Tengdoshimga</i> .....	75

IFTIXOR XONXO‘JAYEV

## UYG‘OQ YURAK

*She‘rlar*

*Muharrir: Humoyun Akbarov*

*Rassom: Abror Yormatov*

*Badiiy muharrir: Akbarali Mamasoliyev*

*Musahhih: Bobur Elmurodov*

*Sahifalovchi: Oygul Fozilova*

*Nashriyot litsenziyasi №. 181. 08.12.11.*

*Terishga 16.09.2012 da berildi. Bosishga ruxsat 02.12.2012 da*

*berildi. Bichimi 70x90<sup>1/32</sup>. Ofset usulida bosildi.*

*«Academy» garniturasini. Shartli b.t. 2,92. Nashr-hisob t. 2,51.*

*Adadi 20.000 nusxa. Buyurtma №*

*«ADIB» nashriyotida tayyorlandi.*

*100027. Toshkent. O‘zbekiston ko‘chasi, 16-uy.*

*Tel: (8371) 245-89-24.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
bosmaxonasida bosildi.*

*100128. Toshkent. Shayxontohur ko‘chasi, 86.*

---

*Muqovani bezatishda respublika rassomlik kolleji  
talabalarining ijodiy ishlaridan foydalanildi.*